

9/10

“Yoshlar daftari” yuritilishi bo‘yicha statistika va reyting ko‘rsatkichlari:

Daftarga kiritilganlar:
151 130

Chiqarilgan:
60 703

Mavjudlar:
90 427

Reyting:
49,6 %

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

24 (16477)
2022-yil, 27-aprel
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

“Yosh kitobxon”
2-bet

Prezident sovg‘asi
Prezidentning ishonchidir

Jarayon
3-bet

1 milliard so‘mlik
tanlov

Mulohaza
6-bet

Qizlar ta‘limi gender
tenglik_(mi?)



Foto: Jalilengir FAYZULLAYEV

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA YANGICHA TIZIM

5-betga
qarang ↓

PREZIDENT SOVG'ASI

PREZIDENTNING ISHONCHIDIR



Yorqinjon HAYITBOYEV,
"Yosh kitobxon" tanlovining respublika bosqichi g'olibi

2017-yil maktabimizda "Yosh kitobxon" tanlovi haqida shov-shuv tarqaldi. Emishki, tanlovning tuman bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchiga qimmatbaho sovg'alar berilar ekan.

Umidlar, niyatlar va duolar bilan tumanimiz markaziga bordim. Borsak, hammamizga anketa to'ldirishimiz lozimligini aytishdi. Anketa-ga qarasaq, chekkasida "Spark" mashinasining surati turibdi. Hayron qoldim. Nahotki, kitobxonlik tanlovi g'olibiga mashina berilsa... Yo'g'e, dedim ichimda. Ishonmadim.

Omad kelsa, qo'sh kelarkan, o'sha yili tumanda ham, viloyatda ham birinchi o'rinni egalladim. Viloyat bosqichida gazetalar sharti bo'lib, kamina shu shartda eng quyi bahoni olgandi. Shuning uchun ham mamlakat bosqichiga ushbu shart bo'yicha qattiq tayyorgarlik ko'rdim. Turli nomli gazetalaridagi ma'lumotlarni ham o'qishga, ham uqishga intildim. Buni qarangi, tanlov oldidan aynan shu shart olib tashlandi. O'sha onda ne ko'yg'a tushganimni, siz, gazeton, jurnalxon sifatida yaxshi tushunasiz.

Xullas, tanlovning respublika bosqichi 2018-yilning bahorida bo'ldi. O'sha yili bilimimiz kamligi, tayyorgarligimiz sustligi uchun tanlovning mamlakat bosqichida 14 ishtirokchi orasida 14-o'rinni oldim. Uyg'a yuzim shuvit bo'lib qaytdim. Xonamga qamallib, ovqat ham yemay qo'ydim.

Ammo ota-onam, ustozlarim daldasi bilan yana qaddimni tikladim. Ochig'i, tanlovlarda birinchi o'rinni olib yurgan bola uchun eng oxiri bo'lish juda alamli edi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqining faol a'zolariga beriladigan imtiyoz asosida Guliston davlat universitetiga hech qanday imtihonlarsiz davlat granti asosida qabul qilingach, talabalik davomida kitoblarga mehrim ortsa ortyaptiki, kamaygani yo'q.

2021-yilning oktabr oylari "Yosh kitobxon" tanlovining kitoblar ro'yxatini ko'rsam, deyarli teng yarmini o'qib chiqqan ekanman. Yana umidlar bilan tanlovga qatnashdim. 2022-yilning fevral oyida tanlovning viloyat bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritdim.



O'rmonali O'RINOV,
Yorqinjon Hayitboyevning otasi, dehqon:

– Farzandimning o'qishini doim nazoratga olib turganman. Dalaga ketganimda ham unga kitobdan betlar bo'lib berardim. Kelgunimga qadar u o'qib bo'lar va menga sharhlab berardi. Mana shuning o'zi dastlabki tayyorlov bo'lgan, deb o'ylayman. O'zim o'qimaganim uchun shu farzandimning o'qishini, ziyoli inson bo'lishini xohlaganman. Tanlovda yutganidan faxrlandim. Bir ota farzandidan qanchalik faxrlansa, shunchalik, balki undan ham yuksakroq faxrlandim.



Buchilol ERKABOYEVA,
onasi, uy bekasi:

– O'zim ona tili va adabiyot o'qituvchisi bo'lishni orzu qilardim. Vaziyat to'g'ri kelmagan uchun o'qish nasib qilmagan. Ammo farzandim Yorqinjonning o'qishi uchun sharoit yaratib berishga harakat qilganmiz. "Oliver Tvistning sarguzashtlari" kitobini qishda bir kun kutubxona-yu kitob do'konlarini izlab, topa olmay kelganman. Keyin bu kitobning elektron variantini olib o'qidi. 700 betga yaqin asarni telefonda o'qishga qiyaldi. Toshkentga ketishidan bir-ikki hafta oldin ushbu kitobni Yoshlar ittifoqida ishlaydigan bir akasining shaxsiy kutubxonasidan topib kelib, ko'z yugurtirib olgandi. Buni qarangi, birinchi shartda shu kitob o'g'limga tushib turibdi-da. 90 ball olgandan keyin bir kunlar kitob izlagandagi charchoqlarim o'z-o'zidan rohatga aylanib ketdi. Tanlovdan so'ng oilamiz, mahallamiz yanada obod bo'ldi. Prezidentimizga ming rahmat.

“YOSH KITOBXON” – BIZNI XALQQA QO'SHGAN, ELGA ESH QILGAN TANLOV.

Viloyat bosqichidan so'ng tush ko'ribman. Tushimda yana 14-o'rinni egallabman. Yomon kayfiyatda uyg'ondim, uyg'ondim-u hamma ijtimoiy tarmoqlarimni, telefonimni ham o'chirib tashladim. Yurakda ming bir hadik bilan Toshkentga bordim. "Yana o'rin ololmasam-chi?", "Sirdaryoliklar ikkinchi marta imkon berishdi, ishonchni oqlay olamanmikan?" kabi savollar yuragimda qush kabi sayrab turdi. 5-shart hal qiluvchi shart bo'ldi. Erkin mavzu shartida "Cho'l" mavzusi tushdi va 80 dan yuqori ball bilan andijonlik Dilnavozdan 3-4 ball o'tib, g'oliblikni qo'lga kiritdim.

Tanlovda bizdan ham ko'proq ota-onamiz hayajonlandi. Ularning quvonib, yig'lab turishganlarini ko'rish farzand uchun haqiqiy e'tirof, menimcha.

Xullas, tuni bilan o'qib chiqqanlarim, mehribon onamning qahraton qishda ham shahardan soatlab kitob izlaganlari, aziz otamning tayyorgarlik jarayonimni nazoratga olib turganlari natija berdi.

Bu yutuq faqat meniki emas, ustozlarimning, ota-onamning ham yutug'idir. "Yosh kitobxon" – bizni xalqqa qo'shgan, elga esh qilgan tanlov. Buning uchun tanlov tashkilotchilariga alohida minnatdorchiilik bildiraman.

Tengdoshlarimni esa faqat va faqat o'qishga chorlab qolaman. Misol uchun, men birinchi yil oxirgi o'rinida qolgan bo'lsam, oradan yillar o'tib oddiy dehqonning, qishloqning bolasi Toshkentga kelib, birinchi o'rinni oldi. Prezident sovg'asi bu Prezidentning ishonchidir. Shu ishonch menda ekanligidan quvonaman. Bugun otam faxr bilan qishlog'imizda "Spark" minib yuribdilar. Bu esa bizning yutug'imiz, oilamizning yutug'idir.



Nargiza XOLBOYEVA,
ustoz:

– Dunyoda shunday daqiqalar bo'lar kanki, xursandligingdan hech qayerga sig'may ketarkansan. 10-11 yoshidan beri yonimda yurgan, ham qayg'uli, ham quvonchli kunlarda birga bo'lgan shogirdim o'z orzusiga yetdi – "Yosh kitobxon" tanlovida g'olib bo'ldi. Yillar davomida o'z ustida ishlagani, harakatlari samarasini berdi. Yorqinjonga hali katta marralarni qo'lga kiritasiz, deb ko'p aytardim, bu boshlanishi bo'lsin.



Feruz ABLAYAROV,

Yoshlar ishlari agentligining Yoshlar bandligini ta'minlash va tadbirkorligini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i

O'ZBEKISTONLIK YOSHLAR XALQARO FORUMDA QATNASHADI

Joriy yilning 8-14-iyun kunlari Orenburg viloyatida bo'lib o'tadigan "Yevraziya Global" VII Xalqaro yoshlar forumida O'zbekistondan 10 nafar yosh ishtirok etadi. Bu kelishuv O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasining 2022-yil 18-aprel kuni Rossiya Federatsiyasiga xizmat safari doirasida amalga oshirildi.

Shuningdek, delegatsiyamiz vakillari Federal yoshlar agentligi Yoshlar loyihalari va dasturlari boshqarmasining Xalqaro faoliyat bo'limi boshlig'i Valeriya Chernogorodova bilan uchrashdi. Uchrashuv davomida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va Rossiya Federatsiyasining Federal yoshlar agentligi o'rtasidagi kelgusi hamkorlik istiqbollari yuzasidan kelishuvga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va Rossiya Federatsiyasining Federal yoshlar agentligi xodimlari o'rtasida qisqa muddatli malaka oshirish dasturini amalga



oshirish bo'yicha taklif ishlab chiqildi. Yoshlar tadbirkorligi va volontyorlik faoliyati bo'yicha malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda O'zbekistonda treninglar tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Delegatsiya a'zolari Tula shahridagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mehnat faoliyatini olib borayotgan obyektlarda bo'ldi. Bu yerda o'zbekistonlik vatandoshlar, o'zbek diasporasi rahbar va faollari bilan uchrashuvlar tashkil etilib, ularning muammo va takliflari tinglandi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2021-yil 1-oktabrda kitob mualliflarini qo'llab-quvvatlash va munosib rag'batlantirish maqsadida "Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob" tanlovi e'lon qilingan edi.

1 MILLIARD SO'MLIK TANLOV

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o'tkaziladigan tanlov yil davomida fan, adabiyot va nashirlik sohasida samarali faoliyat ko'rsatib, yoshlar va bolalarning kitob mahsulotlariga talab-istaklari, qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashga, bilimi va ma'naviyatini boyitishga munosib hissa qo'shgan, jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'lgan ijodkorlar hamda nashriyat xodimlarini rag'batlantirib borishga qaratilgan loyiha hisoblanadi.

Tanlov 3 ta yosh toifasi doirasida (6 yoshgacha, 7-11 yosh, 12-18 yosh) - "Eng yaxshi adabiy-badiiy kitob", "Eng yaxshi ilmiy-ommiyot kitob" nominatsiyalari bo'yicha o'tkaziladi. Qo'shimcha "Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi tarjima asar" (o'zbek tiliga tarjima qilingan) hamda "Eng yaxshi kitob dizayni" nominatsiyalari ham joriy etilgan.



YOSHLAR G'AYRATLI, KEKSALAR IBRATLI

Bu shaxmat turnirida yaqqol namoyon bo'lmoqda

Shaxmat aqliy qobiliyatni rivojlantiradi, tafakkur-ni kengaytiradi. Shu jihatdan olib qaralsa, "Yoshlar ishlari agentligi kubogi" shaxmat turniri ko'plab iqtidorlarni, ayniqsa, olis hududlardagi shaxmatchilarni kashf etish va qo'llab-quvvatlashda ayni muddao bo'ladi.

Turnir joylarda yuqori saviyada, katta ishtiyoq bilan o'tkazilmoqda. Buxoro viloyatida ham yoshlar qay darajada intiluvchan va bilimdonligini namoyon etdi. O'rta va keksa yosh vakillari esa tajriba va matonat bobida ularga o'rnak bo'ldi.

Viloyat miqyosida 18 215 nafar ishtirokchi onlayn ro'yxatdan o'tgan. Mahalla bosqichi yakunlariga ko'ra bu ko'rsatkich 24 560 nafarga yetdi. 63 45 nafar ishtirokchi yoshlar yetakchilari tomonidan oflayn ro'yxatga olingan.

Mahalla bosqichlarida 1, 2, 3-o'rinni qo'lga kiritganlar musoboqaning sektor bosqichida kuch sinashadi.

Lobar QODIROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

- Tavsiya etilgan asarlar bir oy davomida mutaxassislar va jamoatchilik vakillaridan iborat ekspertlar komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi, muhokama qilinadi va ekspertizadan o'tkaziladi, - deydi tanlov tashkilotchisi Saida Rashidova. - Ekspertlar komissiyasi tomonidan kitob muallifi va mutaxassislarni baholashda nominatsiya nomidan kelib chiqqan holda ish sifati, mazmun-mohiyati va badiiy saviyasi, professional yondashuv, originallik, innovatsiyadan foydalanlik, shuningdek, kitob yuzasidan jamoatchilik bildirgan munosabatlarga e'tibor qaratiladi hamda ular asosida ishlab chiqilgan baholash mezonlariga muvofiq baholanadi.

Tanlov fondi 1 milliard 300 million so'm. Asosiy nominatsiyalar bo'yicha g'olib deb topilgan kitob mualliflariga (vafot etgan bo'lsa, qonuniy vorisiga) statuetka va maxsus diplom, shuningdek, birinchi o'rin uchun 100 million so'm; ikkinchi o'rin uchun 75 million so'm; uchinchi o'rin uchun 50 million so'm mukofot mablag'lari topshiriladi. Qo'shimcha nominatsiyalar bo'yicha g'olib deb topilganlarga esdalik sovg'alari, statuetka va maxsus diplom topshiriladi. Taqdirlash marosimi 1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni bo'lib o'tadi.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



HAR YILI TURIZM QISHLOQLARINING
200 NAFAR YOSHLARI BYUDJET
HISOBIDAN TURIZM TEXNIKUMLARIDA
BEPUL O'QITILADI.

“LIDERLARNI TARBIYALAYMIZ”

Prezidentimizning “Navoiy viloyatining olis cho'l tumanlarida aholini turmush darajasini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori asosida olis cho'l hududi yoshlariga berilgan imtiyozdan foydalanib, oliy o'quv yurti talabasi bo'lish baxtiga erishgan yoshlardan biri – ilk qaldirg'och bitiruvchisiman.

O'qish davomida ham talabalar orasida eng yaxshisi bo'lishga intildim. Harakatlarim besamar ketmadi, ko'plab tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallab, 30 dan ortiq xalqaro konferensiyalarda qatnashdim, DIPLOM va SERTIFIKATLAR bilan taqdirlandim. 2020-2021-yillarda talaba bo'lishimga qaramay, Oliy Majlis Senati loyihasi doirasida kambag'allikning oldini olish maqsadida Uchquduq tumanida 800 nafardan ortiq xotin-qizlarni bepul o'quv kurslarida o'qitish va ularning bandligini ta'minlash ishlariga o'z hissamni qo'shdim.

Bugun yangi lavozim – yoshlar yetakchisi, ya'ni Prezident vakili bo'lib ishlayapman.

Faoliyatimning ilk kunlarida yolg'iz ona farzandi internet orqali qimor o'ynab, 30 million so'm qarz bo'lgani va o'g'lining oilasi ajralish yoqasida ekanini aytdi. Onaning ko'z yoshini ko'rib, yuragim ezildi. Ammo buni o'ziga sezdirmaslikka harakat qildim. “Hali o'g'lingizni bu yo'ldan qaytarib, mahallamizning eng faol yoshlari qatoriga qo'shaman”, deb va'da berdim.

Shundan so'ng o'sha yoshni uch oy mobaynida jamoatchilik asosida mahallaga ishga oldik. Xonadonlarni xatlovdan o'tka-

zayotganimda o'zim bilan birga olib yurdim. Ikkinchi har bir oila bilan muloqot qilib, sharoitini o'rgandik. Uning bir daqiqa vaqtini ham bo'sh qoldirmaslikka harakat qildim. Ish jarayonida u bilan ko'proq gaplashishga, ba'zan psixologik trening bilan muloqot qilishga urindim.

Odamlar tashvishini o'ylab yashash, bировga yaxshilik qilish va o'zaro suhbatlarimiz kun sayin uning ruhiyatini ijobiy tomonga o'zgarayotganini sezdim. Ishlashga qiziqishi ortgani sari yuklamalarini ko'paytirib bordim. Onasi bilan har kuni telefon orqali bog'lanib, o'g'li haqida so'rab turdim va o'zgarayotganini aytib, dalda berdim. Mahallamizda bo'layotgan musobaqa va tadbirlarda ham faol ishtirok etishga undadim. O'zida ham qiziqish ortdi. Hozir jamoamizda anchagina obro'si ortgan. Mening tavsiyam bilan tuman hokimi va DXX yordamida Navoiy

“

**YOSHLAR YETAKCHISI TAVSIYASI
BILAN 28 NAFAR YOSH ISHGA
JOYLASHDI. 5 NAFAR ISHSIZ
YOSHGA SUBSIDIYA AJRATILIB,
5 NAFAR BOQUVCHISINI
YO'QOTGAN TALABANING
O'QISHI UCHUN PUL TO'LAB
BERILDI.**



kon-metallurgiya kombinatiga doimiy ishga joylashtirdik. Hozirgi kunda oila a'zolari biz, yoshlar yetakchilarining faoliyatidan mamnun.

Avvallari tadbirkorlik qilish istagi bor yoshlarimiz mablag' masalasida qiynalishgan, subsidiya va imtiyozli kreditlar olishda to'siqlarga duch kelgan. Tegishli tashkilotlarda tanish-bilishi bo'lmaganlar bu imkoniyatdan foydalanishiga yo'l berilmagan. Yoshlarimiz ishga kirish uchun oylab, yillab rahbarlarning eshigi oldida navbat kutar, hech bir ijobiy natijasiz qaytib ketishardi. Endi dam olish kuni bo'lishiga qaramay, tuman hokimi bilan birgalikda oilalarga kirib borib, muammo-

sini tegishli tashkilot rahbarlari ko'magida hal etyapmiz.

Yana bir ish uslubim shundaki, mahalladagi ko'cha sardorlari vazifasini ataylab jinoyatchilikka moyilligi bor yoshlarga yuklayman. Ularga mahallaning lideri ekanini tez-tez ta'kidlab, bo'sh vaqtini tashabbuskor g'oyalar bilan mashg'ul qilyapman. Biror mashg'ulot bilan band bo'lgan yoshlarning esa nojo'ya harakatlari qilishga vaqti ham, xohishi ham bo'lmaydi.

Hozir Uchquduq sanoat texnikumini bitirgan, ijtimoiy muammo-si bor oilalar farzandlarining taqdiriga befarq bo'lmay, ularni Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga ishga joylashtirish masalalarini ko'rib chiqyapmiz. Mahallamdagi qay bir yoshga yordamim tegsa, bundan faqat suyunaman.

Malika XUDOYBERDIYEVA,
Uchquduq tumanidagi “Do'stlik”
mahallasi yoshlar yetakchisi



TEST YECHGANGA MING TANGA

25-aprel kuni “Bilim uchun 100 million” loyihasining 4-tur savollari @bilimtestbotda e'lon qilindi. Ishtirokchilar mazkur turning savollarini 2-mayga qadar o'zlariga qulay soatda kirib ishlashlari mumkin.

Shuningdek, hali ro'yxatdan o'tmaganlar yoki 1, 2 va 3-tur savollarini ishlashga ulgurmaganlar bo'lsa, hozir @bilimtestbotda ro'yxatdan o'tib, olimpiadada ishtirok etishni 4-turdan ham boshlashi mumkin!

Eslatma: 4-tur savollari taqdim etilishi uchun @bilimtestbot telegram botida “Test ishlash” tugmasini bosish va test ishlashni boshlash mumkin. Bilimlaringizni va mantiqni ishga solib, albatta, ishtirok eting!



YOSHLAR BILAN ISHLASHDA YANGICHA TIZIM



Sherzod OLIMOV,
Yoshlar ishlari agentligi boshqarma boshlig'i

Yetakchi – jamoaning ma'natlarini birlashtirib, ma'lum maqsadga yetaklay oladigan, buning natijasida jamoa ishonchiga sazovor bo'lgan shaxsdir. Mahalladagi yoshlar yetakchilari ham shunday liderlar hisoblanadi. E'tiborlisi, bu lavozimning joriy etilishi mahallada yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'xshashi yo'q tizim sifatida baholanmoqda.

Mahalla raisi, hakim yordamchisi, yoshlar yetakchisi hamda xotin-qizlar faoli hamkorligi tufayli yoshlar tarbiyasi, bandligi, bo'sh vaqti mazmunli tashkil etilib, yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

Yetakchilarga yuklatilgan topshiriqlar ham talaygina. "Yoshlar balansi"ni shakllantirish, yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni "Yoshlar daftari" va "Yoshlar portali" elektron platformalariga kiritib borish, mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish eng asosiy vazifalardir.

Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, huquqbuzarlik sodir etishga moyil yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashish ham ular zimmasida.

Har bir yetakchi yoshlarning qiziqishlarini inobatga olgan holda mahallasida turli tadbirlar tashkil etib, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etmoqda. "San'at g'unchalari", "Yoshlar ovozi", "Yosh musavvirlar" "Kamalak yulduzlari" ana shunday tadbirlar sirasiga kiradi. Ular mini-futbol, voleybol, basketbol, stol tennis, velosport, yugurish, shaxmat, shashka, badminton, kamondan otish bo'yicha musobaqalar, salomatlik uchun 5 000 qadam yurish marafoni hamda "Yosh ekolog" aksiyasini o'tkazish orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib etmoqda.

Barcha mahallalarda birdek shov-shuvga aylangan "Zakovat" va "Munozara" intellektual o'yinlari, "Zukko kitobxon", "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila", "Xorijiy tillar bilimdoni", "Yosh poliglot", "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovlari ham yoshlarning bo'sh vaqtiga mazmun olib kirmoqda.

Yetakchilarga qo'yilgan asosiy talablardan biri bu yoshlarni bilimli, ma'lumotli qilish bilan bir qatorda ularni muayyan kasbga yo'naltira bilishdir. Buning uchun zarur sha-

roitlar yaratib, yoshlar muammolari davlat siyosati darajasida mahallabay hal etilyapti.

Bugun yangicha fikrlaydigan, fuqarolik jamiyatini qurishda mamlakat ravnaqiga hissa qo'sha oladigan, o'z kasbining sir-asrorlarini puxta egallagan mutaxassis kadrlarni yetkazib berish boshqaruv tizimi o'ldida turgan eng muhim masalalardan biridir. Shu maqsadda yetakchilar malakasini doimiy oshirib borish uchun maxsus uslubiy qo'llanma yaratilib, yetakchilarga haftalik, oylik va choraklik rejalar tuzish o'rgatildi hamda ilm.argo.uz platformasi orqali o'quv-seminarlar yo'lga qo'yildi, bu ularga ish faoliyatini samarali yo'lga qo'yish imkonini berayotir.

Platformaning qulayligi shundaki, unda ma'lumotlar ham video, ham matn ko'rinishida berilgan. Yetakchilar platformaga turli qurilmalar orqali kirib, bema'lol foydalanishi, har kuni bilimini oshirib borishi mumkin.

Yoshlar yetakchisining muhim vazifalaridan yana biri – "Yoshlar balansi"ni shakllantirish. Buning natijasida mahallalarning yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash toifalari (qizil, sariq, yashil), yoshlarning ijtimoiy holati va muammolarini aniq belgilash orqali yoshlar yetakchilari tomonidan mahalla ko'rsatkichini yaxshilashga qaratilgan alohida mahallabay Yoshlar dasturlari ishlab chiqiladi. Dastur orqali mahalla yetakchilari o'z hududini eng yaxshi mahalla, ya'ni "yashil mahalla" sirasiga olib chiqish imkoniga ega bo'ladi.

Ishonchim komilki, tizim orqali mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha yangicha qarash va takliflar, mahallabay ishlash yo'nalishidagi tajribalar hayotga samarali tatbiq etiladi.

177


IMKONIYAT



DASTURCHILAR UCHUN

Prezidentimizning 2021-yil 20-apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan, yosh dasturchilar uchun imtiyozli kredit va subsidiya ajratish tartibi belgilangan.

"Bir million dasturchi" loyihasi doirasida o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan va sertifikat olgan yoshlar uchun kompyuter (shu jumladan, O'zbekistonda ishlab chiqarilmagan) xaridlari uchun bazaviy hisoblash miqdorigin 25 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda iste'mol kreditlari ajratiladi, ularning foiz to'lovlari Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan kompensatsiya qilinadi.



Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

"Bir million dasturchi" loyihasi doirasida o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan va sertifikat olgan yoshlar "Xalq banki", "Aloqa bank" va "Mikrokreditbank"ka kompyuter xaridi uchun BHMning 25 baravarigacha miqdorda iste'mol krediti ajratish yuzasidan murojaat qiladi.

Shuningdek, talabgor kredit foizlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish yuzasidan Yoshlar ishlari agentligining tegishli hududiy bo'limiga murojaat kiritadi. Murojaatga talabgorning kredit munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Kompensatsiya to'lovlari Yoshlar ishlari agentligiga davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan to'lanadi.

BILIMDONLAR BELLASHUVI

Lobar QODIROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



Xabaringiz bo'lsa, "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida "Zukko kitobxon" onlayn viktorinasi o'tkazilmoqda. Jizzax viloyatida tanlov qizg'in start oldi. Viloyatning 299 ta mahallasida intellektual turnirning mahalla bosqichi o'tkazildi.

"Toshloq" mahallasida bosqichida 5 ta jamoa ishtirokida o'tkazilgan turnir ham haqiqiy bilimdonlar bahsiga aylandi. Jamoalar bilimlarini o'zaro bellashuvda namoyish etdi. Sog'lom raqobat ruhida o'tgan tanlov yoshlarning bilimlarini sinovdan o'tkazish uchun yaxshi imoniyat bo'ldi. Qolaversa, bu viktorina kitobxonlik targ'iboti ham bo'lib xizmat qilmoqda.





Mashhura NASRIDDINOVA

QIZLAR

TA'LIMI GENDER TENGLIK...(MI?)

Do'stim bilan Chorsudagi kitob do'koniga bordik. U tanlagan kitoblarimning mazmuni haqida so'zlay ketdi. Bir emas, bir nechta kitobning har biriga fikrlarini ayta boshladi.

Shunda qo'limga Malala Yusufzoyning "Men Malalaman" kitobini oldim. Do'stimning yana gap xaltasi ochildi: "E, bo'lmaydi. O'zi hamma o'zbek qizlari shu kitobni o'qib, gender tenglikni talab qilishni boshladi. O'qishni maslahat bermayman, ketgan vaqtigingizga achinasiz".

Qaytanga uning so'zlari meni qiziqtirib qo'ydi. Kitobni sotib oldim. Asar 17 yoshida Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan pokistonlik Malalaning hayoti haqida edi. Kitob 382 sahifa bo'lib, unda qahramonning butun hayoti, qiyinchiliklari, ta'lim olishga ishtiyoqi yoritib berilgan. Hajmi katta bo'lsa-da, o'qilishi yengil asar.

Do'stim kabi asar haqida sizga bir talay sifatlar berish niyatim yo'q. Kitobni o'qib, ketgan vaqtimga achinmadim. Ammo do'stimning "O'zbek qizlari shu kitobni o'qib, gender tenglikni talab qilib qolishdi", degan gap-so'zlari xayolimdan ancha vaqtgacha ketmadi. Bu kitobda gender tenglikni targ'ib qiladigan nima bor edi? Malala o'qishga ishtiyoqi, o'sha davrda qizlar ta'limiga qarshi chiqqan talibonlarga nisbatan "Qizlar ham o'qishi kerak" mazmunidagi so'zlari uchun o'qqa tutilganmidi? Agar qiz bolaning o'qish uchun kurashishi biz aytayotgan o'sha tenglik bo'lsa, xulosa qilmay turay.

"QIZ BOLA O'QIB, SHAHAR OLIB BERARMIDI?"

Kunlarning birida ishga ketayotsam, yo'lda yana o'sha tanishimni uchratdim. Qo'limda Fyodor Dostoyevskiyning "Telba" romani bor edi. Salomlashgandan so'ng "Malala tugadimi? Aytganimdek vaqtigingizga achingandirsiz?!", dedi. Men esa qisqa qilib, "yo'q" javobini berdim. Tanishim qaysi savoliga javob olganini bilmay qoldi. Izoh berdim: "Tugatdim, ammo vaqtimga achinmadim".

Agar men bilgan jamiyatda ham qizlar ilm uchun shunchalik harakat qilganda hozir ko'p narsa boshqacha bo'lar edi. Jamiyatda xotin-qizlarning ta'lim olishi qachondan gender tenglikka kirdi ekan?! Islom dinida "ilm olish har

bir musulmon erkak, ayol uchun farz", deyilgan-ku! Qiz bola o'qiyman desa, buning nimasi yomon?!

Tanishim gaplarimga hayratlanib qarab turdi-da, "Uzr, men u asarni o'qimaganman. Shunchaki bir tanishimning fikrini sizga aytgandim", - dedi. Aslida bu voqealardan sira xafa bo'lmadim. Chunki "Qiz bola o'qib, shahar olib berarmidi?" degan fikr ko'pgina o'zbek oilalarining miyasiga singib qolgan. Ro'zg'or tutishni, idish-tovoqni o'rgansa bo'ldi, deyiladi. Uyda ham qiz bola ish qilolmasa yoki nimanidir o'xshatolmasa, o'sha mashhur iborani ishlata-miz: "Bu turishingda seni qaynonang ikki kunda haydab yuboradi".

Hech o'ylab ko'rganmisiz, siz kimni tarbiyalayapsiz? Ertaga begona uyga ularga qiz bo'lib boradigan kelinmi yoki qo'pol qilib aytganda "begona uy uchun mardikor"mi?

GENDER TENGLIKNI KIMLAR TALAB QILYAPTI?

Abituriyentlik paytimda ona tili va adabiyot fanidan tayyorlov guruhimizda qizlar juda ko'p edi. Ba'zan dars qilolmasak, o'qituvchimiz "Qiz bolani hamma ham o'qitavermaydi, xohlama-sanglar ham ota-onangiz oldida ozgina vijdoningiz qiyalsin", - derdi. Meni xursand qiladigan tarafi esa keyingi dars hamma tayyorlanib keldi. Ustozimizning eng katta, eng qo'pol tanbehi shu edi.

Yuqoridagi fikrlarimdan so'ng o'qiyotgan qizlar ko'p-ku, buncha kuyinasan deyingiz tabiiy. Ammo o'qimayotgan qizlar-chi? Xo'p, o'qiyotganlari gender tenglikda bellashyaptimi? Qiz bolaning o'qishi Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) zamonlaridan bor. Ularning sevimli qizlari Fotima (r.a.) ham o'z davrida ayollarga o'qish, yozish ilmidan dars bergan. Biz yashayotgan jamiyatda o'qigan ayol-qizlar tanishim aytgan tenglikni davo qilmayapti. Aksincha o'z kuchi bilan kelajagi uchun harakat qilyapti. U tenglikni esa ijtimoiy tarmoqlarda kimlar talab qilayotganini siz-u biz juda yaxshi bilamiz.

Aslida gender tenglik jamiyatda erkak va ayolning bir xil ko'rilishi emas. Har kim o'z o'rnida bo'lishidir. Jamiyatda sog'lom fikrli avlodni shakllantirish uchun ham ayol kishi o'qishi kerak, deydi-ganlar tarafdorimam.

Farzand tarbiyasi onaning qo'lida bo'ladi. Kitob o'qishga, ilm olishga qiziqqan onaning farzandlari hech qachon, bugungi kun ta'biri bilan aytganda, "telefon jinnisi" bo'lmaydi. Bola uchun oiladagi ilm olishga ishtiyoq muhiti faqat foydaga xizmat qiladi. Axir, aytishadi-ku, "O'rnak bo'lish - eng go'zal tarbiya" deb.




AYOLLARGA QO'SHIMCHA VAQT BERILADI

Qonunchiligimizda ayollarga bir qator imtiyozlar berilgan bo'lib, ularning aksariyati mehnat qilish huquqini ta'minlashga qaratilgan. Xususan, homiladorligi yoki yosh bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. Homilador ayolni yoki uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayolni ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda ish beruvchi rad etishning sabablarini ularga yozma ravishda ma'lum qilishi shart.

- Ikki yoshga to'lmagan bolali ayollarga bolani ovqatlanirish uchun (o'ziga dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffusdan tashqari) kamida har 3 soatda bir marta har biri 30 minutdan kam bo'lmagan tanaffus beriladi. 2 yoshga to'lmagan ikki va undan ko'p bolali ayollarga tanaffusning muddati kamida 1 soat qilib belgilanadi. Mazkur tanaffuslar uchun ish haqi kamaytirilmaydi. Bolali ayolning xohishiga ko'ra, tanaffuslar dam olish va ovqatlanish uchun belgilangan tanaffusga qo'shib berilishi yoki umimlashtirilib, ish kunining boshiga yoki oxiriga ko'chirilishi, ish kuni shunga yarasha qisqartirilishi mumkin.

- Homilador va o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi) bor ayollarni ularning roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtdan tashqari dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga, homilador ayollarni va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga bunday ish ona va bolaning sog'lig'i uchun xavf tug'dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.


- Ayolga, uning xohishiga ko'ra, bolasi uch yoshga to'lgunga qadar bolani parvarishlash uchun ish haqi saqlanmaydigan qo'shimcha ta'til ham beriladi. Bolani parvarishlash ta'tili davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Bu ta'til mehnat stajiga, lekin hammasini jamlaganda ko'pi bilan uch yil, shu jumladan, mutaxassisligi bo'yicha ish stajiga ham qo'shiladi.





Shahruza SATTOROVA

BILASIZMI



KOSMOSNING ZABT ETILISHI

Dunyo paydo bo'libdiki, insoniyat boshqa sayyoralarni o'rganishga qiziqadi. Quyosh sistemasida ko'plab sayyoralar va yulduzlar bor, lekin faqat Yer sayyorasida hayot mavjud.

Ko'p izlanishlar va tadqiqotlar natijasida 1957-yil 4-oktabrda rus astranamlari tomonidan 83 kilogramm og'irlikdagi quvvatli, eltuvchi raketa zarur balandlikka olib chiqilib, unga birinchi kosmik tezlik berishga erishildi. O'rganishlar hayvonlarda sinalgani tufayli koinotga ilk marta "Belka" va "Strelka" laqabli itlar uchirildi. Bu raketa yer atrofida aylana boshlagan va parvoz muvaffaqiyatli bo'lgan.

Tajriba va o'rganishlar natijasida oradan 4 yil o'tib, 1961-yil 17-aprelda Yerdan ko'tarilgan "Vostok" kosmik kemasida Yuriy Gagarin kosmosga uchgan ilk inson bo'ldi. Bu butun insoniyat uchun ulkan qadam edi. Shu davrdan boshlab ko'plab kosmanavtlar va astronavtlar kosmik kemalarda Yer atrofida aylanib, turli tadqiqotlar o'tkazdi.

Kosmosda fasllar yo'q. U yerda alohida oqshom yoki erta tong yo'q, lekin boshliq bor, boshqa hech narsa mavjud emas. Insoniyat yerda abadiy qolmaydi, lekin yorug'lik va kosmosni izlab, dastlab qo'rqmasdan atmosferadan tashqariga chiqadi, so'ngra quyosh atrofidagi butun makonni zabt etadi.

Yuriy Gagarin sayohatidan 2 yil o'tib, 1963-yil 16-iyunda 26 yoshli Valentina Tereshkova "Vostok" kemasida sayyoramizni 48 marta aylanib, 3 kun ichida kosmosga yetib bordi va birinchi ayol kosmonavt nomiga sazovor bo'ldi. To'xtovsiz izlanishlar natijasida 1968-yil 21-iyulda Nil Armstrong va Edvin Oldirin uchgan kosmik kema Oyga qo'ndi va inson Oyni ham zabt etdi.

Insoniyat doimo izlanishlar, o'rganishlar va tajribalar bilan yashaydi. Yangi narsalar ixtiro qilishga yoki yangi joylarni zabt etishga intiladi. Shu tariqa Quyosh sistemasidagi boshqa ko'plab joylarga qadam qo'yadi, koinotdagi yangi yulduzlar kashf etiladi!



Dostonbek ABDURAHMONOV,

Zamin tumani Dashtobod shahrida -
gi 56-ixtisoslashtirilgan davlat
umumta'lim maktabi o'quvchisi

BOSHLIG'IMNING TUSHIGA KIRING!

Hajviya

Avval o'qish, keyin ishdagi charchoqlar, bahorgi holsizlik - hammasi til biriktirgan shekilli, maqola tayyorlash kerak bo'lgan payti ko'zim ilinibdi.

Tush ko'ribman: ishxonada o'tirsam, eshik g'ichirlab ochildi-yu, biz kunda-kunora sevib ishlatadigan ayrim so'z-iboralar turli qiyofada kirib kela boshladi. Ularning aft-angori, nima desam ekan... Qayta-qayta yuvib, ishlatilaverganidan sarg'ayib ketgan oq matoni ko'rganmisiz? Yoki yedirilib narigi tomoni ko'rinib qolgan poyabzal tagcharmi-ni-chi? Boringki, so'nggi pulini ijara haqiga to'lab, so'ppayib qolgan talabani-chi?

Bu so'zlar ana shunga o'xshardi: biri "inson qadri", boshqasi "zamon talabi", yuzi ajinli, sochi-ga oq oralagani "yoshlar - kelajagimiz", anavi chetroqda ko'zlari olma terayotgani "korruptsiya - ashaddiy dushmanimiz", yana biri esa hammamizga tanish "o'zbekchilik" ekan.

Tuppa-tuzuk so'zlar. "Sizni biror telekanalga nom, biror vazirlikka shior sifatida bersa bo'ladi", deb ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldim.

Bu gaplarim ularga yoqmad sheskilli:

- Bo'ldi-da endi, tinch qo'ya-sizlarmi o'zi?! Ertadan kechgacha ishlatilaverib, siyqa bo'lib ketdik. Qadrimiz yo'qoldi. Rasmiy nashrlar, ayrim telekanallar dastidan bizga kun yo'q. Qo'shga qo'shiladigan ho'kizdan farqimiz qolmadi, - dedi zaharxanda bilan "Korruptsiya - ashaddiy dushmanimiz".

- Qayerga qaramay, inson qadri, inson qadri, - gapni ilib ketdi boshqasi, - men sodda bo'lsam, nomimni eshitib, chopqillab kelaverman. Heh, qadringdan, qanday qilib ulug'laysiz? She'r yozib, qo'shga bitibmi? Yoki tadbirbozlik bilanmi? Yetar, balki, endi ayrimlarga berilgan imtiyozlarni bekor qilarsiz? Gaz "zapravka"dagi navbatlarga barham berib, benzini narxini tushirarsiz? Balki, chiroq o'chirishni bas qilib, inson qadri ulug'laysiz?. Ko'rgan odam kuladigan ahvoga tushib qoldim.

- Ochlikdan o'layotgani yo'q-ku hech kim, shu inson qadri emasmi! - deb uni turkkladi "zamon talabi". - Mening ahvolimga boq, hushyorlik - zamon talabi, til o'rganish - zamon talabi, masofadan o'qitish, qonun va adolat ustuvorligi, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yangicha tafakkur - hammasi zamon talabi. Nima qoldi o'zi zamon.

- Bo'ldi-bo'ldi, - so'zini shart kesib, - shikoyatingizni, albatta, o'rga-

nib chiqamiz, axir, bu zamon talabi, - deb yuboribman beixtiyor. Nima qilay, tilimga o'rnamshib qolgan.

- Heh, biz sizga arzi hol qilib o'tiribmiz-a, - dedi hafsalasi pir bo'lgan "o'zbekchilik". - Hamma narsaga ko'nib, "xo'p" deyish - o'zbekchilik! Uyini qo'shnisining uyidan balandroq qilib qurish - o'zbekchilik! Nima bo'lsa bolamga, deb sandiq, sarpo-suriq yig'ish ham o'zbekchilik! Yoshni, mansabni hurmat qilib, oqni qora, qorani oq deyish ham o'zbekchilik! Suf-ey sizlarga, millatning ulug'ligi, bag'rikengligi, donishmandligi, imon-e'tiqodi qayerda qoldi?!

Yoshlarga shuncha imkoniyat yaratilayotgan bir davrda "yoshlar - kelajagimiz" nimadan noliyotgan ekan-a, deb qiziqib turgandim, shu payt eshik taraqqiyat ochilganidan uyg'onib ketdim. Jin ursin, eshikdan boshlig'im qarab turardi.

- Mana yoshlarning ahvoli, uy-qudan bo'shamaydi! Tunov kuni biri orqavoratdan "Oltinshdan oshgan, pensiyaga chiqqan bo'lsa, kursini yoshlarga bo'shatmaydimi?", deb gap-so'z qilibdi. Bu yoshlarga kelajakni ishonib bo'larmidi?!

Eh, shu so'zlar mening emas, qator bo'lib, rahbarimning tushiga kirmaydimi?! Hammasiga bir-bir dakk berib, shart kelgan joyiga qaytarib yuborardilar!

YANA BIR IMKONIYAT

2022-yil 1-iyundan "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslar va ularning farzandlari hamda "Yoshlar daf-tari"ga kiritilgan yoshlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda o'tkaziladigan test sinovlarida ishtirok etish uchun undiriladigan to'lovlardan ozod etiladi.

Ma'lumot uchun: bugungi kunda oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda o'tkaziladigan test sinovlarida ishtirok etish uchun undiriladigan to'lov miqdori bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravari (135 ming so'm)ni tashkil etadi.



MARKETING UZ

LOYIHA HAQIDA

“Marketing Uz” loyihasi o‘zbek tilidagi ilk marketologlar hamjamiyati bo‘lib, loyihaning har bir sonida tajribali marketologlar tadbirkorlar va yosh soha vakillari uchun o‘z bilimlarini ulashadilar. Shuningdek, loyiha doirasida marketingga oid kitoblar tarjimai, intervyu hamda podkastlar ham tashkil etiladi. Loyihaning ilk soni 2020-yil dekabr oyida o‘tkazilgan.



NATIJALAR

Ayni kunga qadar loyihaning 6 ta oflayn soni o‘tkazilib, unda jami 3000 dan ortiq yoshlar bevosita ishtirok etdi. Spikerlarning nutqlarini Telegram, Facebook, Instagram, YouTube, TikTok platformalarida umumiy 2 000 000 dan ortiq tomoshabinlar ko‘rishga ulgurdi. Ayni kunda loyihaning onlayn formatdagi sonlari YouTube platformasi orqali soha qiziquvchilariga yetkazilmoqda.

2021-yilda o‘tkazilgan TAF (Toshkent reklama festivali)ning “Komyuniti, hamjamiyat va sadoqatlik dasturining yaratilishi” yo‘nalishida “Marketing Uz” oltin sovringa loyiq deb topildi.



MARKETING UZ

MARKETING BO‘YICHA
BARCHA BILIMLAR
BU YERDA



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA‘DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO‘JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda №0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko‘chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

“Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma – G-455, Adadi – 10573. Bosishga to‘pshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6